



Dilbar HASANOVA,
O'zbekiston Milliy universiteti tayanch doktoranti
E-mail: hasanovadilbar96pd@gmail.com

LEADING PRINCIPLES OF MODERN UZBEK PROSE

Аннотация

This article provides a comprehensive analysis of the theoretical and aesthetic foundations, transformations in artistic thinking, and leading trends in Uzbek prose of the independence period. Based on theoretical sources and the perspectives of influential literary scholars, the issues of individualization in prose, psychological analysis, the synthesis of Eastern and Western traditions, and intertextuality are elucidated. Furthermore, the phenomenon of syncretism and the intensification of lyricism in modern prose are analytically investigated.

Keywords: independence period prose, artistic thinking, individualization, psychological analysis, artistic synthesis, symbolism, intertextuality, lyricism, syncretism, modern Uzbek literature.

ВЕДУЩИЕ ПРИНЦИПЫ СОВРЕМЕННОЙ УЗБЕКСКОЙ ПРОЗЫ

Аннотация

В данной статье проводится всесторонний анализ теоретико-эстетических основ, трансформаций художественного мышления и ведущих тенденций узбекской прозы периода независимости. На основе теоретических источников и взглядов авторитетных литературоведов освещены вопросы индивидуализации в прозе, психологического анализа, синтеза восточных и западных традиций, а также интертекстуальности. Кроме того, аналитически исследованы феномен синкретизма и усиление лиризма в современной прозе.

Ключевые слова: проза периода независимости, художественное мышление, индивидуализация, психологический анализ, художественный синтез, символизм, интертекстуальность, лиризм, синкретизм, современная узбекская литература.

ZAMONAVIY O'ZBEK NASRINING YETAKCHI TAMOYILLARI

Аннотация

Mazkur maqolada mustaqillik davri o'zbek nasrining nazariy-estetik asoslari, badiiy tafakkurdagi evrilishlar va adabiy jarayondagi yetakchi tamoyillar keng ko'lamda tahlil qilinadi. Tadqiqotda nasrdagi individuallashtirish, psixologik tahlil, Sharq va G'arb an'analarini sintezi hamda intertekstuallik masalalari nazariy manbalar va nufuzli adabiyotshunos olimlarning qarashlari asosida yoritilgan. Shuningdek, zamonaviy nasrdagi lirizmning kuchayishi va sinkretizm hodisasi tahliliy tadqiq etildi.

Kalit so'zlar: mustaqillik davri nasri, badiiy tafakkur, individuallashtirish, psixologik tahlil, badiiy sintez, ramziylik, intertekstuallik, lirizm, sinkretizm, zamonaviy o'zbek adabiyoti.

Kirish. Mustaqillik davri o'zbek nasri milliy adabiyotimiz tarixida nafaqat g'oyaviy erkinlik, balki shakl va mazmun mutanosibligining butunlay yangi bosqichi sifatida namoyon bo'ldi. Bu davrda o'zbek nasri an'anaviy realizm chegaralaridan chiqib, jahon adabiyoti tajribalarini o'zlashtirishi natijasida yangicha badiiy mohiyat kasb etdi. Xususan, G'arb adabiyotiga xos bo'lgan yangi shakl va uslublarning kirib kelishi adabiyotimizda insonning o'z turmush tarzidan begonalashuvi, qat'iy ijtimoiy intizomga e'tirozi va borliqdagi xaosga muvofiqlashuvi kabi murakkab falsafiy masalalarni badiiy tahlil markaziga olib chiqdi. Insonning xayolot olamidani tasalli izlashi, o'zini yakkalik va biqlikka hukm etishi natijasida yuzaga kelgan tushkunlik kayfiyati zamonaviy nasrdagi yangi obrazlar tizimini shakllantirdi. Asarlar poetikasida ramziy obrazlar, qahramon ongidagi evrilishlar ta'sirli ifoda etila boshlandi.

Bugungi kunda san'at va adabiyotshunoslik sohasidagi eng katta yutuqlardan biri bu - ijodning mustabid mafkuraviy tazyiqlardan xalos bo'lganidir. Bu jarayon ijodkorlarga turli falsafiy-estetik yo'nalishlarda erkin fikr yuritish va o'z qarashlarini cheklovlarisiz ifodalash imkonini berdi. Professor Umarali Normatov ta'kidlaganidek: "Bugun asarda "jamiyat qitig'i" ga tegadigan o'tkir gaplarni aytish, jiddiy ijtimoiy-axloqiy muammolarni ko'tarish bilan e'tibor qozonish qiyin; inson qalbi, tabiati haqidagi haqiqatning yangi jihatlarini kashf etish yo'li bilangina hozirgi ma'rifatli, didli kitobxon ko'ngliga yo'l topish mumkin" [1].

Hozirgi adabiy jarayonda milliy o'zlikni anglash bilan birga, umumbashariy qadriyatlarini zamonaviy tafakkur asosida qayta talqin qilish bosh masalaga aylandi. Nazar Eshonqul, Ulug'bek Hamdam, Isajon Sulton, Xurshid Do'stmuhammad,

Murod Muhammad Do'st, Erkin A'zam va Ahmad A'zam kabi adiblar o'z ijodiy izlanishlari bilan o'zbek nasrini sifat jihatidan boyitdilar. Ularning asarlarida an'anaviy realizmdan tortib modernizm, postmodernizm, absurdizm kabi oqimlarning unsurlari mahorat bilan qo'llanildi.

Adabiyotshunos olim Qozoqboy Yo'ldoshev bugungi kun adabiyotining ma'naviy qiyofasini belgilashda o'z yondashuvlarini keltiradi: "Mustaqillik davri o'zbek adabiyoti chinakamiga xilma-xil adabiyot bo'ldi. Unda sinab ko'rish, ochilmagan yo'llardan yurish, hatto, xato qilish imkoniyati bor. Bu adabiyotga qanday yozish kerakligi to'g'risida ko'rsatma berilmaydi. Bu hol birovga erishmaydigan, o'zgalarni takrorlamaydigan o'ziga xos iste'dodlarning yuzaga kelishiga imkon yaratadi. Xilma-xil yo'nalishdagi asarlarning vujudga kelishi badiiy didi har xil bo'lgan o'quvchilarni paydo qildi"[8]. Bunday rang-baranglik natijasida badiiy didi turlicha bo'lgan o'quvchilar qatlami shakllandi va o'zbek nasri jahon adabiy maydonida o'zining munosib o'rnini egallash sari ilgarijadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili va metodlar. Tadqiqot jarayonida zamonaviy o'zbek nasrining tamoyillarini aniqlash uchun bir qator ilmiy metodlardan foydalanildi. Avvalo, qiyosiy-tipologik tahlil metodi orqali istiqloq davri nasri bilan undan avvalgi davrlar, xususan, jadidchilik va 50-80-yillar adabiyoti o'rtasidagi tadrijiy bog'liqlik hamda farqli jihatlar o'rganildi. Badiiy tahlil metodi yordamida zamonaviy asarlardagi ramziylik, majoziylik va diskurs nazariyasi elementlari tadqiq etildi.

Metodologik asos sifatida O'zbek adabiyoti ixtisosligi doirasidagi ilmiy qarashlar, xususan, professor Bahodir Karimovning "Istiqloq adabiyoti: nasr va nazm" asaridagi konseptual xulosalari [2] hamda Dilmurod Quronovning adabiy

tamoyillarga oid nazariy qoidalari [6,146] asos qilib olindi. Shuningdek, tadqiqotda germenetik yondashuv qo'llanilib, matn osti ma'nolari va muallif konsepsiyasi qiyoslandi. Bu metodlar majmuasi zamonaviy o'zbek nasridagi o'zgarishlarni yaxlit tizim sifatida ko'rish imkonini berdi.

Tahlil va natijalar. Ijtimoiy hayotni aks ettirar ekan, adabiyot ham yangicha mazmun, shakl, mavzu va g'oyalar hisobiga boyib, yangilanib boradi: "Adabiyot va san'atning uzluksiz taraqqiyoti, rivojlanishi, boyib borishi, yangi-yangi adabiy formalarning maydonga kelishi, turli ijodiy, adabiy oqimlar paydo bo'lishi va o'zaro kurashlari adabiy jarayonni tashkil etadi"[3]

Ma'lumki, badiiy ijodda biror bir yo'nalish tasodifan paydo bo'lmaydi. Har qanday tamoyilning yuzaga kelish tarixi, qamrovi, miqyosi va istiqboli bo'ladi. Shu ma'noda, badiiy adabiyotdagi tamoyillarning vujudga kelishi badiiy tafakkurdagi o'zgarishlar jarayonidan boshlanadi. Bu esa, yangicha tafakkurning samarasi yangicha qarash ekanini isbotlaydi. Zamonaviy o'zbek adabiyotiga xos bo'lgan xususiyatlar, o'zgarishlar, mavjud tamoyillar masalasini o'rganar ekan, professor Qozoqboy Yo'ldoshev bu davr adabiyotining doimiy o'zgarishda ekanini keltirib o'tadi: "Hozirgi o'zbek adabiyotining eng o'zgarimas belgisi uning to'xtovsiz o'zgarishlar kechimida ekanidir. Shuning uchun ham bugungi adabiyotning taraqqiyot tamoyillarini tayin etish bajarilishi mushkul yumushlardan hisoblanadi. Bir zamonlar adabiy yaratilarning saviyasi mavzuning dolzarbligi, ba'zi paytlar tasvirlanayotgan voqealarning qiziqarli ekani, ayrim davrlarda badiiy san'atlarning qancha va qanday qo'llangani bilan belgilangan bo'lsa, endilikda adabiyotning bosh xususiyati hech kimga o'xshamaslik, betakrorlik bo'lib qoldi. Bugun adabiyot uchun mavzu emas, odam muhimligi sabab olamshumul tasvirlar egallab boryapti. Shu bois bir-biriga o'xshamagan qator tasvir yo'nalishlari yuzaga kelmoqda va bu milliy adabiyotning taraqqiyot darajasini yuksaltirishga xizmat qilyapti"[4]. Shu ma'noda yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda quyidagi tamoyillarni zamonaviy o'zbek nasrining etakchi tamoyillari sifatida belgiladik:

1. Individuallashtirish tamoyili

Zamonaviy nasrda inson shaxsini badiiy tadqiq etishga antropotsentrik yondashuv ustuvorlik kasb etdi. Adabiyot "tipik sharoitda tipik qahramon" andozalaridan voz kechib, shaxsni takrorlanmas individual olam sifatida talqin eta boshladi. Nazar Eshonqul, Xurshid Do'stmuhammad, Erkin A'zam va Ahmad A'zam kabi ijodkorlar asarlarida voqelik personajning subyektiv idroki va ichki kechinmalari prizmasi orqali tasvirlanadi. Bunda lisoniy individuallashtirish – qahramonning ijtimoiy kelib chiqishi va dunyoqarashiga mos "so'zlatilishi" (masalan, Sh.Bo'tayevda xalqona nutq, E.A'zamda intellektual piching) obrazning hayotiyatini ta'minlovchi asosiy omilga aylandi.

2. Psixologik tahlil tamoyili

Inson ruhiyati adabiyotning asosiy tasvir predmetiga aylanishi natijasida psixologik tahlil tamoyili yangi bosqichga ko'tarildi. Insonni ruhiyatisiz yaxlit holatda tasavvur qilib bo'lmasligi tamoyili asosida, istiqbol yillari nasrida qahramonlarning ong osti kechinmalari va murakkab ruhiy jarayonlarini teran yoritish ustuvorlashdi. Zulfiya Qurolboy qizi, Ahmad A'zam va X.Do'stmuhammad kabi adiblar ijodida inson ruhiyatining eng yashirin qirralarini badiiy gavdalandirishga bo'lgan intilish yaqqol ko'zga tashlanadi.

3. Sintez va uyg'unlashtirish tamoyili

Ushbu tamoyil jahon adabiyotining ilg'or tajribalarini sharqona badiiy tafakkur bilan mahoratli birlashtirishni ifodalaydi. Ulug'bek Hamdam ta'kidlaganidek, hozirgi adabiy jarayonda turli "izm"lar va yo'nalishlarning kesishuvi natijasida o'ziga xos adabiy sintez hodisasi yuzaga keldi. Sh.Davronova qayd etganidek, bu davr nasrida eng qadimgi an'analar, mumtoz durdonalar va modernistik unsurlar o'zaro uyg'unlashgan. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar", Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" va Nazar Eshonqulning "Go'rog'li" kabi asarlari Sharq va G'arb an'alarining badiiy sintezi sifatida namoyon bo'ladi.

4. Ramziy-majoziy ifoda tamoyili

Voqelikni to'g'ridan-to'g'ri bayon qilishdan ko'ra, ramziy va majoziy obrazlar orqali badiiy talqin etish zamonaviy nasrning tayanch omilidir. Ramz matnning ko'p qatlamli va ostma'nolar cheksizligini ta'minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Xususan, Omon Muxtorning "Ko'zgu oldidagi odam", Asad Dilmurodning "Fano dashtidagi qush" va Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" kabi asarlarida ramziy obrazlar asarning badiiy-falsafiy markazini tashkil etadi.

5. Intertekstuallik tamoyili

Postmodern adabiyotning muhim usullaridan biri bo'lgan intertekstuallik – bir matnning boshqa matnlar bilan dialogik aloqasini ta'minlaydi. Mualliflar she'rlar, rivoyatlar va hikmatli so'zlardan foydalanish orqali yangi ma'no qatlamlarini kashf etadilar. Masalan, Ahmad A'zamning "Asqartog' tomonlarda" qissasida Shodi aka tilidan aytilgan rivoyat qahramon taqdiriga ishora qiladi, Navoiy misralaridan foydalanish esa asar g'oyasini umumlashtiradi. X.Do'stmuhammad va N.Eshonqul ijodida folklor an'analari, xususan, "Donishmand Sizif" va "Go'rog'li" asarlarida mifologik hamda doston motivlari yangicha talqin etilgan.

6. Tarixiylik tamoyili

Istiqbol davrida tarixiy haqiqatni anglash va o'tmish merosiga xolisona yondashish tamoyili qaror topdi. Sho'ro mafkurasiga ta'siridagi beryoqlama qarashlardan voz kechilib, buyuk siymolar hayoti haqqoniy yoritildi. Xayridin Sultonovning "Boburiynoma", Muhammad Alining "Ulug' saltanat" va Pirmiqul Qodirov kabi adiblar ijodida Amir Temur va temuriylar davri, shuningdek, Isajon Sulton, Luqmon Bo'rixon kabi yozuvchilar ijodida Beruniy, Alisher Navoiy, Moturidiy kabi mutafakkirlar siymosi milliy davlatchilik va ma'naviy meros kontekstida yangidan kashf etildi.

7. Lirizmning kuchayishi tamoyili

Zamonaviy nasrda voqea-hodisalar bayonidan ko'ra, tasvirning teranligi va musiqiy ohangdorlik etakchi o'ringa chiqdi. Nasrning she'riyatga yaqinlashishi, matnning lirik tuyg'ular bilan sug'orilishi Isajon Sultonning "Bog'i Eram" hikoyasi yoki Iqbol Mirzoning "Bonu" romani kabi asarlarda yaqqol seziladi. Bunday asarlarda nasr shunchaki hikoya qilish vositasi emas, balki inson ruhiyatining nozik torlarini chertuvchi yuksak san'at darajasiga ko'tariladi.

8. Sinkretizmlik tamoyili

Badiiy matn tarkibida turli janr elementlarining, xususan, lirik, dramatik va epik tasvir usullarining qorishiqi sinkretizm hodisasini keltirib chiqarmoqda. Isajon Sultonning "Boqiy darbadar" romanida diniy rivoyatlar, tasavvufiy tushunchalar va zamonaviy fan tili uyg'unlashgan. Professor Qozoqboy Yo'ldoshev ta'kidlaganidek, postmodern san'atda turli uslublarga taqlid qilish, "quroq" usuli va matnlarning o'zaro daxldorligi asarning sinkretik tabiatini belgilovchi asosiy xususiyatlardir.

Muhokama. Tadqiqotda aniqlangan tamoyillar mustaqillik davri o'zbek nasrining an'anaviy realizm qoliplaridan chekinib, intellektual va psixologik teranlik kasb etayotganini ko'rsatadi. Bu jarayonda individuallashtirish tamoyili borasida adabiyotshunoslikda turlicha yondashuvlar mavjud. Agar klassik adabiyotshunoslik qahramonni ko'proq ijtimoiy tip sifatida baholagan bo'lsa, bizning kuzatishlarimiz zamonaviy nasrda, xususan, Xurshid Do'stmuhammad va Ahmad A'zam ijodida "antropotsentrik" yondashuvning ustuvorligini tasdiqlaydi. Bu esa qahramonning jamiyat bilan emas, balki o'zining ichki "men"i bilan bo'lgan muloqotini birinchi planga olib chiqmoqda.

Sintez va sinkretizm masalasiga to'xtalganda, Ulug'bek Hamdamning "izm"lar kesishuvi haqidagi fikrlari diqqatga sazovordir. Munozara nuqtasi shundaki, ayrim tadqiqotchilar bu jarayonni badiiy "bo'tqa" (pessimistik qarash) deb baholasa, biz buni Sh. Davronova kabi "ijodiy sintez" (optimistik qarash) sifatida e'tirof etamiz. Chunki Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asari misolida ko'ringanidek, G'arb modernizmi va Sharq ramziyligi bir-birini inkor etmaydi, aksincha, milliy tafakkurning yangi qirralarini ochishga xizmat qiladi. Bu o'rinda Abdug'afur Rasulov ta'kidlaganidek, Yevropa va mumtoz an'analar uyg'unligi milliy proza taraqqiyotining qonuniyatli bosqichi ekanligi ilmiy jihatdan o'z isbotini topmoqda.

Ramziylik va intertekstuallik tamoyillari borasidagi bahslarda asosan matnning murakkablashuvi va kitobxon tushunchasi o'rtasidagi mutanosiblik masalasi ko'ndalang bo'ladi. Bizning fikrimizcha, intertekstuallik (masalan, Ahmad A'zamda Navoiy misralarining qo'llanishi) shunchaki iqtibos keltirish emas, balki qahramon ruhiy olamini ochib berish vositasidir. Professor Qozoqboy Yo'ldoshevning postmodernistik "quroq" tamoyili haqidagi fikrlarini davom ettirgan holda aytish mumkinki, bunday ko'p qatlamlilik o'zbek nasrini jahon adabiy jarayoniga integratsiya qiluvchi asosiy omildir.

Shuningdek, lirizmning kuchayishi masalasida nasrning syujet tizimi zaiflashayotgani haqidagi qarashlar munozarali bo'lib qolmoqda. Biroq Isajon Sulton va Iqbol Mirzo asarlari tahlili shuni ko'rsatadiki, voqebandlikning lirik hissiyotlarga bo'shatib berilishi nasrning badiiy-estetik quvvatini pasaytirmaydi, aksincha, o'quvchining asarni hissiy va falsafiy qabul qilish qatlamlarini

kengaytiradi. Umuman olganda, ushbu tamoyillar zamonaviy o'zbek nasrining nafaqat uslubiy boyishini, balki milliy badiiy tafakkurning erkin va intellektual tizimga aylanganini namoyon etadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, mustaqillik davri o'zbek nasrining taraqqiyot tamoyillari badiiy tafakkurning yangilanishini ko'rsatuvchi yaxlit estetik tizimni tashkil etadi. Ushbu davr adabiyoti sho'ro realizmi andozalaridan voz kechib, inson shaxsini takrorlanmas individual olam sifatida kashf etishga yo'naltirilgan antropotsentrik tamoyilni o'zining bosh mezoni qilib belgiladi. Sharqona mumtoz falsafa bilan g'arbcha modernistik uslublarning sintezi natijasida janriy ko'lam kengaydi, ramziy-majoziy qatlamlar teranlashdi. Zamonaviy nasrda lirizm va sinkretizmning kuchayishi badiiy so'zning ta'sir quvvatini oshirib, milliy adabiyotimizni jahon adabiy jarayoni bilan bo'ylashtirishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Давронова Ш. Истиклол даври ўзбек романларида Шарқ ва Ғарб аъналарининг бадий синтези. ДСс дисс. автореф. –Тошкент, 2011. – 25-б.
2. Расулов А. Истеъдод ва эътиқод. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 67-б.
3. Раҳимжонов Н. Мустиқиллик даври ўзбек насри. – Тошкент: Фан, 2010. –184-б.
4. Каримов Б. Истиклол адабиёти: наср ва назм. – Тошкент: Ўзбекистон, 2014. – 114-б.
5. Норматов У. Ижод сеҳри. – Тошкент: Шарқ, 2007. – 54-б.
6. Quronov D. Adabiyotshunoslik nazariyasi asoslari. – Toshkent: Akademnashr, 2018. – 146-b.
7. Ҳамдам У. Бадий тафаккур тадрижи. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2003. – 42-б.
8. Йўлдошев Қ. Ёниқ сўз. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2006. – 13-б.
9. Йўлдошев Қ. Сўз ёлкини. Тошкент.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-маъбаа ижодий уйи, 2018. – Б.348.
10. Шукуров Н., Хотамов Н., Холматов Ш., Маҳмудов М. Адабиётшуносликка кириш. – Т.: Ўқитувчи, 1979. – Б. 156.